

### **BOLALARDAGI AGRESSIV XATTI-HARKATLARNI PAYDO BO'LISH SABABLARINI O'RGANISH**

*Xojamuratova Gulzamira Tursimuratovna,*

*Beknazarova Sofiya Baqtibaevna*

*Qoraqalpoǵistan Respublikasi*

*Nukus tumani 22 va 2-sonlı məktəb psixologları*

Insonlardagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'luvchi hulq-atvor tiplaridan biri agressiyadir. «Agressiya» tushunchasiga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug'diradi, chunki bu atama ko'plab xatti-harakat shakllarini ifodalaydi. Insonning agressiv xatti-har akatlarga moyillagini turlicha tushuntirishga qaratilgan dastlabki nuqtai nazarlar ichida U. Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning «inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi», degan qarashlaridir. Agressiv hulq-atvor haqidagi fikr mulohazalar XX asrning boshlarida frustratsiya nazariyasi bilan bog'liq ravishda yuzaga keldi. Unga ko'ra, agressivlik frustratsiyaning oqibatidir. Bunda qarashni birinchi bo'lib J.Dollard ilgari surdi. Ammo, ushbu nuqtai nazar amaliyotda o'z tasdig'ini topmadi. Agressiv hulq-atvor xususidagi yana bir nuqtai nazar L. Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida bayon qilingan.Unga ko'ra, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi. Nihoyat, agressiv hulq-atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy nuqtai nazar bilishning kognitiv nazariyasi bilan bog'liq holda ifodalanadi. Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijalari sifatidaba holanadi:

- 1) sub'ektning o'z agressiv xulk atvorini ijobiy deb baholashi;
- 2) frustratsiyaning mavjudligi;
- 3) affekt yoki stress tipidagi emotsiyonal qo'zg'alishning kuchliligi.

R. Kratchfield va N.Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan va birday maqbul ikki tavsifini keltirganlar. Birinchisi, hulq-atvorning zohiriyl

(tashqi) alomatlariga asoslanadi: «Agressiya – kimgadir ziyon etkazuvchi hulq-atvorning har qanday ko’rinishidir». Ikkinchisi, odamning niyatlari bilan bog’li ya’ni insonni harakatga undovchi kuchlar bilan mushtarak: «Agressiya – boshqa bir insonga ziyon etkazishni maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakatdir». Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monanda tushunchalarga tayangan ko’plab psixologlar agressiyani mavjudotning yashash uchun kurash bilan bog’liq uzviy xususiyati deb hisoblaydilar. D. Bass taklif etgan ta’riflardan biriga ko’ra, boshqalar uchun xavf tug’diruvchi va ularga ziyon etkazuvchi har qanday fe’l-atvor agressiyadir. Bir nechatani tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan ikkinchi ta’rif esa quyidagicha: u yoki bu harakatlar agressiya sifatida tasniflanishi uchun ular oxir-oqibat xafa qilish yoki haqoratlashga olib kelishi emas, balki xafa qilish va haqoratlarni maqsad qilib qo’yishi lozim. Nihoyat, uchinchi nuqtai nazar X. Zilman tomonidan bildirilib, unga ko’ra, agressiya o’zgalarga tanjarohati va boshqa jarohatlar etkazish demakdir. «Agressiya» tushunchasining talqinidagi kelishmovchiliklarga qaramay, ijtimoiy fanlar sohasidagi ko’plab mutaxassislar uning ikkinchi nuqtai nazarda bayon etilgan ma’nosiga ko’proq tayanadilar. SHunday qilib, hozirda ko’pchilik psixologlar tomonidan «agressiya – boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon etkazishni maqsad qilib qo’yan fe’l-atvorning har qanday shakli», degan ta’rif qabul qilingan. U agressiyaga emotsiya, motiv yoki ko’rsatma sifatida emas, balki fe’l-atvor modeli sifatida qarashnita qozo etadi. Bu muhim fikr ko’plab chalkashliklarni tug’dirdi.

«Agressiya» atamasi ko’p hollarda g’azab kabi salbiy his -tuyg’ular, haqorat qilish va ziyon etkazish kabi motivlar, hatto irqiy va etnik xurofot bilan assotsiatsiyalanadi. Bu omillar natijasi zarar etkazish bo’lgan fe’l-atvorda muhim rol o’ynashiga qaramay, ular bunday harakatlar uchun asos bo’la olmaydi.

Inson qaysi sohada faoliyat olib bormasin, o’z faoliyati davomida agressiya, stress holatlariga duch keladi. Agressiya stress natijasida ishchi hodimlarda kayfiyat yo’qligi, sog’liqlarida bo’lgan muammolar, ish qobiliyati samaradorligi susayishi kuzatilgan. Agressiya stress jarayonlari bu yosh bilan

bog’liq bo’lmanan jarayon hisoblanadi. Sababi hozirgi kunga kelib bolalarda ko’p aniqlanyapdi. Agressiya xatti-harakatlari bolalarda ham uchrab ularda uyquni buzulishi, ovqatlanish tarzining buzilishi, asabiylashish, jizzakilik holatlari ko’p kuzatilmoxda.

Bola hayotida qo’rquv paydo bo’lishi, atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlik, sabablari o’rganilganda oilaviy nosog’lom muhit yoki tashqi muhitda bo’ladigan voqeа hodisalar bolalarda kuchli agressiya holatlari bolalik davri inqirozini olib kelishi mumkin. Bola yosh davrlari inqirozi vaqtida qiyinchiliklarga duch keladi va natijada uning xatti-harakatlarida xarakterida agressiya holatlari seziladi. Agressiya holatlari bolada chuqur taassurot qoldiradi va agressiya holatining tugatilishi qiyin bo’ladi. Agressiv bolalar xususiyatlari:

- Atrofdagilarga nisbatan qo’rquv
- O’ziga va atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlik
- O’zini nazorat qila olmaslik
- Asabiylashish, kayfiyat yo’qligi
- O’ziga nisbatan salbiy munosabatlarni his qilish va h.k

Bolalardagi agressiv xatti-harakatlar

- Ruhiy zarba berish
- Atrofdagilarga nisbatan taqlid
- Jismoniy zo’ravonlik (ba’zi vaqtlarda atrofdagilarga yoxud o’ziga nisbatan zarar yetkazish)

Bolalardagi agressiv holatlarni paydo bo’lishiga va rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar.

1.Nosog’lom oila muhiti:

- Ota –ona mehridan uzoqligi
- O’zini kerak emasdek his qilish
- Oilada farzandning o’rni yo’qligi
- Farzandining qiziqishlariga ota-onaning befarqligi
- Oilada ota-onaning munosabatlarida urush va janjallar

### **2.Kattalarning bolalarga munosabati:**

- Bolaga taxdid qilish
- Qo'rquv uyg'otish
- Bolaga jismoniy zo'ravonlik
- Bolaga hukm o'tkazish ayblolar
- Bola bilan negativ muloqotlar

### **3.Bolaga ommaviy axborot vositalarining ta'siri:**

- Jangari kinofilmlar
- Yoshiga mos emas multfilimlar
- Internet tarmoqlaridan ko'p foydalanish zararli malumotlarni izlash

### **4.Bolaning tengdoshlari bilan munosabatlari:**

- Tengdoshlari orasidagi o'rni
- Tendoshlarining munosabatlari, ishonchsizligi va h.k.

Bolalardagi aggressiv xatti-harakatlar yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillardan paydo bo'lishini aniqlangan. Nosog'lom oila muhiti bolaning aggressiv xatti-harakatlarning paydo bo'lishinig asosiy sababidir. Chunki ta'lim va tarbiya doimo oiladan boshlanadi. Oiladagi ota-onaning munosabatlari urush-janjallari orqali bolalarda qo'rquv shakllanadi. Bu qo'rquv tufayli u o'ziga nisbatan ishonchsizlik orttiradi, atrofdagilarga nisbatan qo'rquv orqali bola yolg'iz o'zi qolib ketadi, kattta bo'lganda ham jamiyatda atrofdagilarga qo'shila olmaydi. Bolalardagi aggressi xatti-harakatlar paydo bo'lmasligi uchun nosog'lom oila muhitini to'g'irlash lozim. Yuqorida biz faqat nosog'lom oila muhitidagi bitta holatni ya'ni oiladagi nosog'lom munosabatlar orqali bolada qanday aggressiv xatti-harakatlar bo'lishi va kelajagidagi ta'sirini o'rganib chiqdik xolos. Bolada aggressiv xatti-harakatlarni oldini olish uchun ota-onalarga maslahatlar. Birinchidan oila muhitini to'g'irlash urush-janjallarni kamaytirish.Ikkinchidan ota-onaning farzandiga bo'lgan munosabatini, ishonchini oshirish, bolaga imkon yaratib berish.Uchinchidan ota-onalarga bolalari orqali o'zlarining bolalik damlarini eslatib, farzandidagi talab darajasining yuqoriliginini, injiqlik, sho'xliklarini qabul qilishni o'rgatish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. David.G.Myers "Psychology" -2010 Pg 698
2. Z.T.Nishonova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov darslik "Psixologik xizmat" Toshkent-2013
3. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti -2010